

**ABDULLA QODIRIYNI BUGUNGI KUNIMIZDA TASAVVUR
OLAMIMIZDAGI QIYOFASI****Mirakmalova Dilnoza Husan qizi***Toshkent davlat texnika universiteti**Biotexnologiya kafedrası, 3-kurs 122-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot, mustaqillikdan keyin uning to’liq oqlanganligi va uning xotirasini abadiylashtirish uchun Prezidentimiz tomonidan targ’ib qilinayotkan chora-tadbirlar haqida yoritib boriladi.*

Kalit so‘zlar: *Julqunboy, “Mushtum” jurnali, “Sadoi Turkiston”, publitsistika, Padarkush ta’sirida “Baxtsiz kuyov”.*

“Buyuk adibimiz, o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy badiiy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o‘zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda”.

Shavkat Mirziyoyev

Abdulla Qodiriy o‘z zamonasining buyuk adibi, o‘zbek romanchiligining asoschisi, o‘zbek adabiyotining mohir yozuvchisi, o‘z asarlari bilan kelajak avlodga bebaho, qadrli meros qoldirgan adib. Uning asarlarida odob-axloq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy holat aks etgan. Ulkan iste’dod egasi Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog‘bon oilasida tug‘ildi. Bo‘lajak adib hayot mohiyatini, turmushdagi tirikchilik tashvishlariyu ziddiyatlarini juda erta angladi. XX asr avvali ijtimoiy hayotidagi tang holatlar yosh Abdullaning bolaligiga ham soya tashladi. U bolaligidanoq turmush tashvishlari ichiga sho‘ng‘idi. Shu ma’noda adib o‘z tarjimai holiga oid manbalarda o‘sha zamonlarni xotirlab shunday yozadi: “Men qaysi yilda va qaysi oyda tug‘ilg‘onimni bilmayman. Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug‘ulib, yaqinlarimning so‘zlariga qaraganda, mustabid Nikolay taxtga o‘tirgan yili tug‘ulg‘onman. Boshida boy oilada tug‘uldimmi yoki kambag‘al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshga to‘ymag‘onidan, ustum tuzukroq kiyim ko‘rmag‘onidan aniq bildimki, besh jonning tomog‘i faqat 80 yoshlik chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog‘ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog‘ mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochliqqa duch kelib, qishi bilan jovrashib chiqar ekanmiz”.

Abdulla Qodiriy bolaligida duradgorlikni o'rganadi, akasi bilan toqichilik qildi. Shuningdek, u esini tanigan chog'idan boshlab, otasiga bog' ishlariga qarashadi. Bu yumush unga umr bo'yi hamroh bo'lgani ma'lum gap [1].

Faoliyati

1904-1906 yillarda bo'lajak adib musulmon maktabida ta'lim oladi.

1908-1912 yillarda rus tuzem maktabida,

1916-1917 yilda Abulqosim shayx madrasasida arab va fors tillaridan saboq oladi,

1924-1925 yillarda V.Ya Brusov nomidagi Moskva adabiy kurslarida o'qiydi.

1918 yil- eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi

1919 yil - "Oziq ishlari" gazetasi bosh muharriri

1920 yil- Kasabalar sho'rosining sarkotibi

1923-1926 yillarda "Mushtum" jurnali tashkilotchilaridan biri va tahrir hay'ati a'zosi sifatida faoliyat yuritgan.

Ilmiy ijodi

Adib tarjimai holida adabiy faoliyatining boshlanishini shunday xotirlaydi: "Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadirg'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913-yilda o'zbekcha "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oyina" gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi.

Adibning ilk chiqishi "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yili 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan "Yangi masjid va madrasa" nomli xabari bo'ladi.

Adibning 1917-yili Oktabr to'ntarishlaridan keyingi faoliyati asosan matbuot, ya'ni publitsistika bilan bog'liq. U 1919-1925 yillar oralig'ida 300 ta turli maqolalar, publitsistik asarlar yaratgan. Abdulla Qodiriy jurnalistik faoliyati haqida: "Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo'lsa, menim xizmatlarim matbuot bilan ravshandir..." deydi.

Abdulla Qodiriy adib va shoir sifatida 1912-yillarda faoliyatini boshlagan. "To'y" "Ahvolimiz", "Millatimga", "Fikr aylagil" kabi she'rlari "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz" hikoyasi uning ilk asarlaridir. Qodiriy shunday xotirlaydi: "1913 yilda chiqqan "Padarkush" ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim (1915 yilda). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg'on hikoya va ro'monlarga taqlidan "Juvonboz" otliq hikoyachani yozib noshir topilmag'onidan, o'zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg'ondan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim..." [2].

Eng mashhur asarlaridan qisqacha

Abdulla Qodiriy "Ahvolimiz" she'rini 21 yoshida yozgan. She'rdagi har bir qator chuqur ma'noga boy. Har bir zamon uchun mos shu jumladan, hozirgi davrda yoshlarni vatanga,

ilm olishga bo‘lgan muhabbatini ziyoda qilishiga yordam bersa ajab emas. Yana zararli omillardan bo‘lgan, unga nisbatan kurash avj olayotkan jamiyat rivojiga to‘siq bo‘ladigan illat-korrupsiyaga va vaqtincha rohat, umrboqiy pushaymon bo‘lgan gihoyvandlikka ham alohida urg‘u berilgan. Bu borada har birimiz vijdonimiz, nafsimiz bilan kurashib, o‘zimizni isloh qilishimizga chorlamoqda. Qo‘limizdan kelganicha bu tubi chuqur bo‘lgan tubanlikka tushayotkan odamlarga qo‘limizni cho‘zishimiz shart va zarurligiga targ‘ib qilinmoqda.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotining roman janridagi ilk asardir. Shu bilan yozuvchi o‘zbek romanchiligiga asos solgan. Kitob har bir zamon uchun mos. Yozuvchining aytishicha: ”Bu kitobni bir emas, besh marta o‘qish kerak. Shunda siz turmushni, tarixni, siyosatni, odobni va tilni o‘rganasiz. Abdulla Qodiriy vatanini va xalqini juda sevar, uning osmoni doimo musaffo, insonlari baxt, tushunilish osmonida yashashini istardi. Bu asar orqali yozuvchi xalqning milliy ongini uyg‘atmoqchi bo‘ladi va tarixning “eng qora, og‘ir kunlari” ni yozadi. Kitobda o‘zbek millatining o‘sha davrda-”xon zamonlari”da boshdan kechirgan kunlari, o‘zbek yigitining mardligi, rostgoyligi, qaynona-qaynotaning oiladagi qat‘iyaliligi, o‘zbek ayolining qadriyatlariga sodiqligi va farzandga bo‘lgan iliq mehr, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro sadoqat aks etgan. Asosan o‘sha davrdagi johillik, urf-odatga ko‘r-ko‘rona ergashish qanday qilib odamlarning baxtini yo‘qotishini ko‘rsatgan.. Otabek — zamonasidan ilgari yuradigan bola. Ammo zamon uni tushunmaydi, oxiri fojia bilan tugaydi.

O‘zbek adabiyotining ikkinchi yirik romani ham Abdulla Qodiriy qalamiga mansub. “Mehrobdan chayon” romani 1928-yili fevralda yozib tugatilgan. 1929-yil Samarqand shahrida bosilib chiqqan. Bu asarda Xudoyorxon davrida xalqning ko‘rgan zulmlari, haq-huquqlarni poymol qilinishi, beayb oqqan qonlar haqida ijtimoiy holatlar aks etgan. Asarda Anvar va Ra’nolarning pok muhabbatlarining sinovi, jamiyatda ayollarning ahvoli, Abdurahmon domla, Shahodat Mufti, Kalonshoh mirzo kabi erkaklarning tuban axloqsizligi, ikkiyuzlamachiligi ochiq ko‘rsatilgan. Ra’no timsolida Qodiriy jamiyatdagi Xudoyorxonning nafsini yo‘lida ayollarning ezilishi haqida juda achchiq haqiqatni yozgan.

Nohaq o‘lim

Abdulla Qodiriy 1937-yilning 31-dekabrda “xalq dushmani” sifatida hibsga olinadi. 1938-yilning 4-oktabrida yozuvchi 9 oylik xo‘rlıklardan so‘ng Cho‘lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birgalikda otib tashlanadi. Toshkentdagi Xo‘ja Alambardor (Kamolon) qabristoniga dafn etiladi.

Adib qamoqqa olingandan so‘ng, uning asarlari “zararli” deb topildi. O‘tda yoqildi, kutubxonalardan yo‘qotildi, o‘qish taqiqlandi. Kimning qo‘lida “O‘tkan kunlar” romanini ko‘rib qolishsa, darhol qamashdi.

1957-yilda Abdulla Qodiriy rasman o'qlandi. Ammo uning otib tashlanganligi haqidagi ma'lumot (o'limidan so'ng o'qlanganligi haqidagi ma'lumot kabi) uzoq yillar mobaynida sir saqlandi [2]. 1991-yilda Abdulla Qodiriyga "Mustaqillik" ordeni, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berilgan. Shuningdek, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Toshkent Davlat madaniyat institutiga, madaniyat va istirohat bog'lariga, davlat muassasalari hamda metro bekatiga Abdulla Qodiriy nomi berilgan. Shuningdek, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Universitetlarda talabalar orasida Abdulla Qodiriy hayotini targ'ib qilgan faol o'quvchilar uchun stipendiyalar va davlat grandlari ajratilgan. Xususan Toshkent Davlat Texnika Universiteti tomonidan ham har yili ushbu Abdulla Qodiriy nomli stipendiyalar uchun saralash tanlovlari o'tkaziladi, Abdulla Qodiriy hayotini xotirlab Qodiriy haftasi, "Adiblar xiyoboni" va "Abdulla Qodiriy uy muzeyi" ga tashriflar uyushtiriladi. Toshkent Davlat madaniyat institutiga, madaniyat va istirohat bog'lariga, davlat muassasalari hamda metro bekatiga Abdulla Qodiriy nomi berilgan. Abdulla Qodiriy xotirasiga ehtirom ko'rsatish, milliy adabiyotimiz rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini ulug'lash maqsadida prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan poytaxtimizning Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i oldida ijod maktabi va muzey barpo etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. O'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

– Abdulla Qodiriy ijod maktabida o'qiyotgan bu bolalar yangi O'zbekistonning kelajagi bunyodkorlaridir. Barcha umumta'lim maktablari ushbu o'quv dargohidan ma'naviyatni, ma'rifatni o'rganishi lozim. Chunki bu yerda tahsil olayotgan bolalar nafaqat ma'naviyatli, balki o'z vatanini yurakdan sevuvchi iste'dod egalari. Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz, – dedi Prezident.

Ijod maktabida "Qodiriy izdoshlari", "Yosh qalamkashlar", "Yosh jurnalistlar" kabi to'garaklar, "Ifodali o'qish", "Notiqlik san'ati" bo'yicha qo'shimcha darslar tashkil etilgan. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga bag'ishlangan ma'rifiy tadbirlar tez-tez o'tkazilib turadi [3].

Boqqa kiraverishda buyuk yozuvchi haykali o'rnatildi. Mazkur binoga «Turon» kutubxonasi ham joylashtirildi. Bu nafaqat yetuk ajdodimizning vorislari, balki adabiyot, ma'naviyat va ma'rifat ahlini, butun xalqimizni quvontirdi. Davlat rahbari so'zida Abdulla Qodiriy asarlari, xususan "O'tkan kunlar"ga alohida to'xtaldi.

"Bitta narsani hammamiz bilishimiz kerak. Adabiyotsiz iqtisodiyot ham, ma'naviyat ham bo'lmaydi. O'zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ini bir emas, bir necha marta o'qigan bo'ladi. Nimaga desangiz, uni o'qigan odam hech qachon oilaga xiyonat qilmaydi, kerak bo'lsa vatanga xiyonat qilmaydi. Jadid bobolarimiz Fitrat, Cho'lpon,

Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Munavvarqori... Ular imorat qurmagan, o‘ziga boylik izlamagan. Bittayu bitta xazina – ne mashaqqat bilan topgan pullariga kutubxona qurganlar. Shu “Turon” kutubxonasini ham o‘zlarining mablag‘lariga qurib, mana shu elimizga, kerak bo‘lsa, o‘zligimizga namoyon qilib, tirik haykal qilib ketgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu kutubxona namuna bo‘lishi kerak. Bu kutubxonada ma’rifat nuri bizga har tomonlama yangi-yangi zafarlar, natijalarga madadkor bo‘lishi kerak. Bu kutubxonaning nuri hammamizga kuch-quvvat berib turishi kerak. 37-yillar nima uchun jadidlarga hujum bo‘lgan? Agar ular hayot bo‘lib, qatag‘on bo‘lmaganda edi, hozir O‘zbekistonning rivojlanishi mutlaqo boshqa yo‘lda bo‘lardi. Men bunga ishonaman, buning tagida hamma asoslar bor. Agar ziyolilarimiz, yozuvchilarimiz, adabiyotshunoslarimiz qalami bilan hozirgi adolatni qo‘rqmasdan yozsa, Abdulla Qodiriylar, Cho‘lponlar, Fitratlarning ruhi shod bo‘ladi. Vaqtlar o‘tadi. Xudo xohlasa 10-12 yildan keyin biz niyat qilgan, butun dunyo bilan kurasha oladigan yoshlar paydo bo‘ladi. Men bunga ishonaman” [4].

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bahodir Karimov Jadidlar. Abdulla Qodiriy Toshkent; Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Sputniknews.uz
3. Rewiev.uz
4. Prezident.uz